

## **Misrga dam olishga ketayotgan sayyohlar uchun yo'riqnoma**

**Sharm el-Sheyh shahri:**

**+201 09 918 1344**

**Hurgada shahri:**

**+201 20 526 2058**

---

### **Vizaga oid qoidalar Misr**

#### **1 MAYDAN BOSHLAB BEPUL SAYYOHLIK VIZASI BERILISHI BEKOR QILINDI**

Sizga shuni ma'lum qilamizki, 2021-yil 1-maydan boshlab Misr kurortlariga borish uchun bepul sayyohlik vizasi berish tizimi bekor qilindi.

Misrga kirish uchun sayyohlik vizasi narxi aeroportda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun har bir kishiga 25\$ ni tashkil etadi.

#### **Hurgada**

Kiruvchi barcha mehmonlar viza olishlari va ro'yxatdan o'tishlari kerak.

#### **Sharm el-Sheyh**

Viza va ro'yxatdan o'tish 2 holatda zarur:

- 1 Agar sayyoh sayohat davomida Sinay yarimoroliga (Qohira va b.) borishni rejalashtirayotgan bo'lsa;
- 2 Agar sayyohlar Sinay yarimorolida 15 kun/14 tundan ko'proq muddatga qolsa.

Viza uchun majburiy tarzda yetib kelgandan boshlab 7 kun muddatda ro'yxatdan o'tishtalab etiladi. Ro'yxatdan o'tish narxi har bir kishi uchun 15\$ ni tashkil etadi.

P.S.S. Agar sayyoh dastavval faqat "Sinai only" shtampini olgan bo'lsa-yu, sayohat davomida fikri o'zgarib, Sharm el-Sheyhga ekskursiya uchun tashrif buyurishga qaror qilsa, gidga pasport, viza uchun 25\$ va ro'yxatdan o'tkazish uchun 15\$ berishi lozim. Yana shu ham muhimki, sayyoh Sharm el-Sheyhdan tashqaridagi ekskursiya ham belgilangan muddat ichida bo'lganligi sababli gid bilan kelishib olishi kerak. Gid bilan

**MUHIM:** O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun kirish 2021-yil 30-aprelga qadar cheklangan.

*2-varoq*

#### **Ro'yxatdan o'tish**

Reys uchun ro'yxatdan o'tish samalyot uchishidan 2 soat avval boshlanadi va sayyohning o'zi tomonidan amalga oshiriladi. Agar sayyoh davlatga kirishda ro'yxatdan o'tmasa, unga 51\$ miqdorida jarima belgilanadi. Kishi boshiga 50\$ dan kam bo'lmagan narxdagi tur-paket xarid qilinganda, FUN&SUN kompaniyasi ro'yxatdan o'tkazishni bepul amalga oshiradi. Mehmonlar tur-paket

sotib olmagan taqdirda ro'yxatdan o'tish har bir kishi uchun 10\$ ni tashkil etadi. **DIQQAT!** Barcha sayyohlar ro'yxatdan o'tishlari majburiydir (necha tun qolishlaridan qat'iy nazar).

### **Aeroportga qo'nish, mehmonxonaga joylashish**

Aeroportga kelgach, vizani rasmiylashtirish uchun quyidagi hujjatlarni taqdim etish lozim:

1. Xorijga chiqish pasporti (passport amal qilish muddati rejalashtirilgan turning so'nggikunidan so'ng kamida 6 oy bo'lishi kerak).
2. Immigratsiya kartasi (sayyohlik firmasi gidi tomonidan beriladi) aeroportda ingliz tilida to'ldiriladi.
3. Sayyohlik vaucheri. Yuklar olinganidan so'ng, kompaniya vakili "FUN&SUN" yozuvli tablichka bilan kutib oladi va mehmonxonaga jo'nash uchun qayerga boorish kerkaligini tushuntiradi.  
Mehmonxonaga ketilayotganda gid sayohat qilinadigan mamlakat, uning o'ziga xosliklari, milliy urf-odatlar, mahalliy valyuta kursi haqida umumiy ma'lumotlar berib o'tadi.

### **Joylashish**

Mehmonxonaga joylashish soat 14.00 dan so'ng amalga oshiriladi. Kelganingizdan so'ng mehmonxonaga joylashish uchun vaucherni taqdim qilish zarur. Mehmonxonaga joylashayotganda qaysi xizmatlar bepul, qaysilari esa qo'shimcha to'lov talab qilishini bilib oling. Sayohatingiz tugab, mehmonxonadan ketayotganingizda xonani soat 12.00 ga qadar topshirishingiz kerak. Aeroportga borish vaqti haqida gid bir kun avval shaxsan o'zi ma'lum qiladi yoki mehmonxonaga resepsioniga xabar qoldiradi. Mehmonxonadan ketayotganda qo'shimcha xizmatlar uchun hisob-kitob qilinadi (agarda siz to'lovni tasdiqlovchi hujjatlardan foydalangan bo'lsangiz)

### **Qo'shimcha ma'lumotlar**

Joylashib olganingizdan 1-2 kun o'tib, gid siz bilan uchrashganida mehmonxonaga sharoitlari, sug'urta kompaniyasiga murojaat tartibi haqida ma'lumot va operativ aloqa uchun gid telefon raqamini olishingiz mumkin.

(!) Toshkentga uchishdan bir kun avval mehmonxonaga hollidagi ma'lumotlar oynasida (FUN&SUN) qaytish reysi va aeroportga transfer haqida ma'lumotlar joylashtiriladi. Ko'rsatilgan vaqtda mehmonxonaga resepsionida bo'lishingiz talab etiladi.

(!) Agarda sizda sug'urta bilan bog'liq tibbiy holat yuzaga kelsa, sug'urta polisida ko'rsatilgan telefon raqamlar orqali sug'urta kompaniyasiga murojaat qilishingiz lozim. Rus tilida gapiruvchi operatorga o'z joylashuvingiz va sug'urta polisi raqamini ayting va nima qilish kerakligini aniqlashtirib oling.

### **Toshkentga qaytish**

Misrdan O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelayotgan barcha yo'lovchilar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ham COVID-19 ga PZR-test topshirishlari zarur. O'zbekiston Respublikasi hududida yashash huquqi mavjud bo'lgan shaxslar PZR-testni Islom Karimov nomidagi xalqaro aeroportda topshiradilar va test natijalari chiqqunga qadar kun davomida uy izolyatsiyasida bo'ladilar.

### **Vaqt**

Vaqtga nisbatan O'zbekiston va Misr orasida 3 soat farq bor.

### **Mamlakat haqida**

Mamlakat: Misr Arab Respublikasi – Poytaxti: Qohira shahri. Aholisi: 65 mln dan ortiq. Aholining 99% i misrliklarning arablashgan avlodlaridir. Etnik xalqi: nubiyalar, shuningdek beduinlar va boshqa ko'chmanchi qabilalar. Aholining 80%i dehqonlar (fellahlar). Til: rasmiy tili – arabcha. Chetelliklar bilan asosan ingliz va rus tillarida muloqotga kirishishadi. Milliy pul birligi: misr funti (1 funt = 100 piastri). Geografik joylashuvi: Misr Afrika va Osiyo qit'olari tutashuvida joylashgan, Afrika qit'asining shimoli-sharqiy qismi va Osiyoning Sinay yarimorollarini egallaydi. Iqlimi: issiq va

quruq. O'rta Yer dengizi sohilida va Qizil dengiz yaqinida iqlimi O'rta er dengizi subtropikdir. Yoziquruq, qishi yumshoq, havosi ancha nam. Suv harorati 20 darajadan pastga tushmaydi.

## **Bagaj**

Bagaj bizning bloklarimizda Yevropa standartlari bo'yicha qabul qilinadi, ya'ni:

Bepul bagaj tashish: Qo'l yuki – 7 kg gacha. Topshiriladigan bagaj: 1PC – bu 1 joy 23 kg, bu degani siz 23 kg og'irlikdagi yukni 2 ta sumkaga bo'lmaysiz, aks holda 1 ta sumka bepul, ikkinchisi esa qo'shimcha pullik bagaj hisoblanadi. 1 ta sumkaga maksimal 23 kg yuk joylash mumkin. Agar yuk miqdori ortib ketsa, qo'shimcha to'lov to'lanadi. Iqtisod klassida 1 PC = 1 joy 23 kg. Biznes tarifida 2 PC = 2 joy 32 kg dan. Agar yo'lovchi borish va qaytishda biznes klassda uchsa, har biri 32 kg dan bo'lgan 2 ta sumka olib ketish imkoniyatiga ega bo'ladi. Mos ravishda, kim ekonom klassda uchsa, unga 1 joy 23 kg.

Diqqat!!! Agar yo'lovchi borishda biznes klassda uchsa, har biri 32 kg dan bo'lgan 2 ta sumkani bepul olib ketish huquqi bo'ladi. LEKIN! Qaytishda iqtisod klassda uchsa, bagaj normasi 1 joy 23 kg ni tashkil etadi va ortiqcha yuk uchun to'lov talab qilinadi. Aksincha holatda ham.

Ushbu qoidalarni sayyohlarga alohida tushuntirish lozim.

## **Quyidagi kategoriyadagi passajirlarni tashish bo'yicha qoidalar:**

### **1. Homilador ayollarni tashish:**

Homilador ayollarga taxminiy tug'ruq vaqtidan 4 haftagacha avval muddatda parvozni amalga oshirishni tavsiya etamiz. Homiladorlikning 22-haftasigacha muddatda bo'lgan bo'lajak onalar shifokorning uchishga ruxsatnomasiz parvoz qilishlari mumkin.

Bo'lajak onalar reysga ro'yxatdan o'tish boshlanishi bilan kelgani ma'qul. Homiladorlik muddati 22 haftadan 34 haftagacha bo'lgan muddatdagi bir homilali ayollar, 22 haftadan 32 haftagacha bo'lgan davrdagi ko'p homilali ayollar hoiladorlik muddati va sog'ligi qoniqarli holatda ekanligi haqidagi tibbiy ma'lumotnoma mavjud bo'lgan taqdirdagina parvozga ruxsat beriladi. Chet eldagi aeroport orqali uchilsa, ma'lumotnomani chet tiliga tarjima qilish zarur. Bir homilali homiladorlikning 34-haftasidan, ko'p homilali homiladorlikning 32-haftasidan keyingi muddatda bo'lgan bo'lajak onalar mas'ul tibbiy komissiyaning yozma xulosasini taqdim qilganidan so'ng uchishga ruxsat etiladi (Qozog'iston Respublikasida parvoz 035-1/y shakl orqali amalga oshiriladi). Chet eldagi aeroport orqali uchilsa, xulosani o'sha davlat tiliga tarjima qilish zarur. Xulosaning amal qilish muddati 30 kun. Agar tug'ruq keyingi 7 kalendar kun ichida kutilayotgan bo'lsa, aviakompaniya tibbiy xulosa mavjud bo'lsa ham parvozga ruxsat bermaydi. Tug'gan ayollar tug'ruqdan so'ng va yangi tug'ilgan chaqaloqlar tug'ruqdan keyingi dsatlabki 7 kun ichida parvoz qilishlariga ruxsat berilmaydi. Istalgan aviakompaniya boriladigan davlat immigratsiya qonunchiligi talablarida ko'rsatilgan bo'lsa, homilador ayollarni tashishni rad etishi mumkin.

## **Nogironligi bo'lgan shaxslarni tashish**

Bizning charter reyslarimizdagi yo'lovchilar uchun ma'lumotlar, uchrashuvda aytilganidek, quyidagilardir: Imkoniyati cheklangan yo'lovchilar arizalariga avvaldan eslatma kiritib qo'yishlari zarur, so'ng agent Nile Air kompaniyasini bu haqida qo'shimcha xat orqali xabardor qiladi. Agar yo'lovchi shaxsiy nogironlar aravasi bilan bortga kirmoqchi bo'lsa, bizning Nile Air kompaniyasidagi charter reys kuzatuvchimizga so'rov yuboriladi. Arava yukxonada olib ketiladi va bo'linadigan/yig'iladigan tipda bo'lishi zarur. Arava samalyot saloniga joylashtirilmaydi, yo'lovchi odatiy o'rindiqlarda parvoz qiladi. Nogironlar aravasi bagaj normalaridan tashqari alohida hisoblanadi va yuk xati xulosasi asosida yo'lovchidan qo'shimcha to'lov olinmaydi.

## **Bolalar o'rindig'i (BSCT)**

Reyslarda yo'lovchilarga bolalar o'rindig'i faqatgina ekonom klassning 11-qatoridan (B767 samolyotlarida 11- va 32-qatorlar) va biznes klasning 1-qatoridan MY SEAT xarid qilganida taqdim etiladi. O'rindiq faqat birinchi qator yon tomonda joylashgan bo'ladi. Biznes klassda 1 ta, iqtisod

klassda 2 ta bolalar o'rindig'i bo'ladi. Chaqaloqlar uchun og'irlik cheklovi: 8 kg dan ko'p bo'lmagan. 1 yoshdan katta bolalar uchun o'rindiq taqdim etilmaydi.

### **Avariya joylariga quyidagi yo'lovchilar joylashtirilmaydi:**

Yoshi kattalar (qariyalar), nogironlar, bolalar va homilador ayollar.

### **Sport anjomlarini tashish**

Sport anjomlari samalyotning bagaj yukxonasida olib ketiladi va bu yuk xatida aniq ko'rsatib o'tilishi lozim. Parvozdan avval aniqlashtirib olish zarur. Agentlikda so'roq ostida.

### **Sut mahsulotlarini tashish**

Sut mahsulotlarini tashishda amal qilinishi kerak bo'lgan talablarni eslatib o'tamiz:

- 100 ml dan kata hajmdagi sig'imga ega sut mahsulotlari (qimiz, qatiq, ayron v.b.) faqatgina ro'yxatdan o'tkazilgan holda bagajda (yukxonada) tashish uchun qabul qilinishi mumkin.
- Mahsulot idishi yetarli darajada chidamli bo'lishi, usti yaxshilab qattiq berkitilgan bo'lishi zarur.
- Idish hajmi maksimal darajada to'ldirilmagan bo'lishi kerak (har ehtimolga qarshi, idishning 1/5 qismi bo'sh qoldilishi lozim).
- Sut mahsulotlarini tashishga olishdan avval muzlatish zarur.
- To'kilishning oldini olish maqsadida idishlar 3 qavat polietilen plyonka yoki 3 ta mahkam yopilgan plastik paket bilan o'ralishi lozim.

### **Go'sht va baliq mahsulotlarini tashish**

Umumiy qoidalar:

Havo kemasi salonida to'kilishning va/yoki nohush hid tarqalishining oldini olish maqsadida yo'lovchilar uchun go'sht va baliq mahsulotlarini tashishga oid quyidagi talablar kiritilgan:

- 1) Go'sht va baliq mahsulotlari, (yangi, muzlatilgan go'sht, yangi, muzlatilgan, dudlangan, quritilgan, tuzlangan baliq), keying o'rinlarda "Mahsulotlar", faqatgina ro'yxatdan o'tkazilgan holda bagajga olinadi. Mahsulotlarni havo kemasi salonida olib ketish MAN ETILADI.
- 2) Mahsulotlar faqatgina qulay va zarar yetmagan qadoqlardagina tashish uchun qabul qilinadi. Xalqaro reyslarda tashuv: mahsulot maksimal og'irligi har bir yo'lovchi uchun 5 kg. Agar mahsulot supermarketdan sotib olingan bo'lsa, xarid cheki ko'rsatilishi lozim. Mahsulot bozordan sotib olingan bo'lsa, aeroport veterinariya xizmatiga veterinariya sertifikatini taqdim etish lozim.

### **Musiqasi asboblari va sinuvchan buyumlarni tashish**

Sinuvchan buyumlar va musiqasi asboblarni (kontrabas, vilonchel v.b.) samolyot salonida olib ketish uchun qo'shimcha joy band qilinadi (semiz yo'lovchi uchun band qilinganidek, pullik joy). Aviakompaniyaga so'rov yuboriladi. CBBG so'rovini tasdiqlash uchun band qilingan qo'shimcha joy mavjudligi, og'irlik va tashiladigan bagaj o'lchami tekshiriladi. O'lcham 140x50x30 (B757, 767 uchun) dan oshmasligi kerak, ruxsat etilgan maksimal og'irlik - 75 kg. Bunday qo'shimcha joy uchun 20 kg bepul bagaj normasi amal qilmaydi. 32 kg dan ortiq og'irlikdagi TV uskunalar va maishiy texnikalar yuk jo'natmasi sifatida rasmiylashtiriladi. Kichik hajmli texnikalar (mikrovolnovka, toster, magnitofon v.b.) ro'yxatga olingan bagaj sifatida tashilishi mumkin.

### **Istisno**

Gitara, saksofon, shuningdek, shu kabi o'lchamdagi boshqa musiqasi asboblari qo'l yuki sifatidaro'yxatga olinadi va tashiladi.

**Aloqa uchun:**

Quyidagi masalalar bo'yicha savollar paydo bo'lganida:

- Ekskursiya buyurtma qilish;
- Ro'yxatdan o'tishni rasmiylashtirish;
- Mehmonxona bilan bog'liq muammo paydo bo'lsa;
- Sug'urta bilan bog'liq holat yuzaga kelganda;
- Shoshiling savollarni hal etishda

Keyingi o'rinda ko'rsatilgan raqamlarga qo'ng'iroq qilishingiz mumkin: Sharm el-Sheyh shahri:

+201 09 918 1344

Hurgada shahri:

+201 20 526 2058

Ushbu kontaktlar aloqa uchun 24/7 ishlaydi.

**Misr avariya xizmati**

Politsiya Telefon: 122

Sayyohlik politsiyasi: 126

Yo'l politsiyasi: 128

Fuqarolik mudofaasi (yong'in brigadasi): 180/125

Tez yordam: 123

**Misr Arab Respublikasidagi O'zbekiston elchixonasi**

Misrdagi O'zbekiston elchixonasi

Manzil: EP 18, Sad El-Aali St., Dokki-Cairo

Telefon: (+2023)336-17-23, 336-45-16

Sayt : [www.uzembegypt.com](http://www.uzembegypt.com)

**Mamlakatdan olib chiqish ta'qiqlanadi:**

- Milliy valyuta;
- Marjonlar va dengiz faunasi obyektlari (jarima 1000 AQSH dollari);
- Sterik qiymatga ega bo'lgan buyumlar;

Mast holda jamoat joylarida yoki ko'chada paydo bo'lish, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun belgilanmagan joylarda spirtli ichimliklarni iste'mol qilish man etiladi.

Marjonlarni tashlab yuborish mumkin emas (jarima 100 AQSH dollari).

Misrliklarni ularning ruxsatisiz rasmga olish. Shuningdek turli obyektlar, jumladan ruxsat etilgani tasdiqlanmagan turli madaniy obyektlarni rasm va videoga olish ta'qiqlanadi. Bu to'g'risida politsiyadan ma'lumot olish mumkin. Harbiy obyektlarni rasmga olish, tarixiy obidalarning parchalarini "esdalik uchun" yig'ish man etiladi.

**Istisno**

- "Ustki kiyim" siz cho'milish va quyoshda qorayish;
- Kranlardan suv ichish;
- Nil daryosida cho'milish shuningdek yalangoyoq yurish yoki Nil qirg'og'ida to'shaksiz yerga yotish;
- Baliq va boshqa dengiz flora va faunasi vakillarini tutish.